

О'ЗБЕК SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINI INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISH

Toshquvvatov Xayrulla

Аннотация: Bu maqolada o'zbek somatik frazeologik birliklarini ingliz tiliga tarjima qilish usullari ko'rib chiqilgan. Bosh, yurak, ko'z, qo'l, burun komponentli frazeologik birliklarini analog tarjima, ekvivalent tarjima, tasvirlash uslubi, kalka metodi orqali tarjima qilish uslublari o'rganilingan.

Калит so'zlar: frazeologiya, somatik frazeologik birliklar, nutq birliklari, ekvivalent, analog, milliylik, tana a'zolari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются способы перевода узбекских соматических фразеологизмов на английский язык. Изучены приемы перевода фразеологизмов, состоящих из компонентов «голова», «сердце», «глаз», «рука», «нос», аналоговым переводом, эквивалентным переводом, описательным и кальковым методами.

Ключевые слова: фразеология, соматические фразеологизмы, речевые единицы, эквивалент, аналог, национальность, части тела.

Abstract: This article deals with the methods of translating Uzbek somatic phraseological units into English. The methods of translating the phraseological units consisting of head, heart, eye, hand, and nose components through analog translation, equivalent translation, descriptive and calque method were studied.

Key words: phraseology, somatic phraseological units, speech units, equivalent, analogue, nationality, body parts.

Somatik frazeologik birliklar o'zbek olimlari tomonidan anchadan beri tadqiq qilib kelinmoqda. A. Isaev "O'zbek tilining somatik frazeologik birliklari" ilmiy tadqiqotida o'zbek tilidagi somatizmlarni o'rgangan. Olim bu ilmiy ishida somatizmlarni ularning sinonim, antonim va omonim xususiyatlari, hamda tilning kommunikativ funksiyasi nuqtai nazaridan o'rgangan.

Inson yoki hayvon tana a'zolari tarkibiy qismlarining ismlarini o'z ichiga olgan somatik frazeologik birliklar frazeologiya sohasidagi eng keng va qo'llanish koeffitsenti ancha yuqori bo'lgan guruhlardan birini tashkil qiladi. V.P.Shubinaning ta'kidlashicha til frazeologiyasining qariyb 15 foizi somatik frazeologik birliklardan tashkil topgan.

Somatik frazeologizmlar - bu inson tanasining turli qismlarini ifodalovchi nutq birliklaridir. Turli xalqlar madaniyatida o'ziga xos turli somatik frazeologizmlar mavjudki ular qiyoslanayotgan tillarda muqobil variantga ega bo'lmagan madaniy xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan tafovutlar yaratishi mumkin. O'zbek tilining

frazeologiyasida ham inson tana a'zolari bilan ifodalanuvchi xalqning qadimiy urf-odatlarini va an'analarini o'zida aks ettiruvchi ko'plab frazeologik birliklar mavjud: ko'zining paxtasi chiqdi, bosh omon bo'lsa do'ppi topiladi, qo'y og'zidan cho'p olmagan, bosh-ko'zingdan sadaqa, og'ziga tolqon solmoq, boshini ikkita qilmoq, og'zida qatiq ivitmoq.

Ma'lumki, badiiy asarlarda voqealarni jonlantirish maqsadida turli xil o'xshatish, kinoya va iboralardan muntazam foydalaniladi. Tarjima qilinayotgan asar original asarning tarjima qilinayotgan tildagi nusxasi hisoblanganligi uchun u tashiyotgan axborotdagi obrazlilik aslidagidek saqlab qolinilishi talab etiladi. Ular yordamida badiiy asar o'quvchilarga ta'sir qilish darajasi oshadi, tilimizni boy, aniq va chiroyli qiladi hamda o'qishni yengillashtiradi. Lekin iboralar tarjimasida ozgina murakkab soha hisoblanadi. Frazeologik birliklarni tashkil qiluvchi har bir so'z aynan lug'atda berilayotgan ma'nolari kabi tarjima qilinmaydi va shu sababli ularni o'zga tilga so'zma so'z tarjima qilish tarjima qilingan adabiyotni kulgili va tushunarsiz qilib qo'yadi. Chunki iboralar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak ularning ildizi bir necha asrlarga borib taqaladi, muallifi noaqiq bo'lib, unda har bir xalqning urf-odat va an'analari, tarixi, hayot tarzi mujassamlashgan bo'ladi.

Agarda tarjimon matnda turg'un birikmalarga duch keladigan bo'lsa ularni to'g'ridan-to'g'ri so'zma so'z tarjima qilmasligi, balki o'zi tarjima qilayotgan tildagi ekvivalentini topishi kerak. Tarjimon badiiy asarda ekvivalenti yoki analogi bo'lmagan frazeologik birliklar uchrashi mumkinligini hisobga olgan holatda ikki tilning turg'un birliklaridan yaxshi xabardor bo'lishi, ayniqsa, har bir til frazeologik birliklarining semantikasini mukammal bilishi bilan bir qatorda shu davr va jamiyatning ruhini tushunishi darkor. Agarda tarjimada xatolar qilinadigan bo'lsa asl nusxadagi tasvir vositalar yordamida aks ettirilayotgan badiiy voqelik va milliylik kabi badiiy asarga jon baxshida etib turgan o'ziga xos xususiyatlar yo'qotilishi mumkin.

Ingliz va o'zbek tillari turli xil madaniyatlarga ega bo'lgan bir tillar oilasiga mansub bo'lmagan bir biridan leksik, Grammatik farq qiladigan tillar sirasiga kiradi, ammo inson bir xil fikrlash jarayonini boshidan o'tkazadi. Ayniqsa, til va frazeologik birliklar haqida gapirganimizda, ikki tilning idiomalari tasvirlarida va ularda nazarda tutilgan ma'no mazmun o'rtasida juda katta ekvivalentlik hodisasi borligini ko'rishimiz mumkin. Madaniyatdagi farqlar tufayli bir xil ma'no ifoda etayotgan frazeologik birliklar ba'zan bir biridan farq qilishini ham mumkin. Ularning ma'nosi bir xil bo'ladi ammo shakli turlicha bo'ladi.

O'zbek tilida somatizm ishtirok etgan frazeologik birliklar insonning turli psixologik holatlari, tashqi xususiyatlari, jismoniy xususiyatlari, ijtimoiy xususiyatlarini ifodalaydi. Bosh, yurak, ko'z, til, qo'l, burun, yuz komponentli frazeologik birliklar tuzilish nuqtai nazaridan bir necha turga bo'linadi. Ular ishtirok etgan frazeologik birliklar inson tanasining bir qismi sifatida o'zbek tilida ko'plab iboralar hosil qilish qobiliyatiga ega. O'zbek tilidagi somatik frazeologik birliklar xalqning uzoq tarixi, madaniyati, urf-odat va an'analarini o'z ichiga oladi.

“Boshidan oshib yotmoq”, yoki “boshni qashishga ham vaqt yo’q” iborasi benihoyatda band ekanligini ifodalaydi. Ingliz tilida esa bu ma’noni “to be up to my ears” iborasi yordamida ifodalash mumkin.

“Bo’ldi, mulla Abdug’afur, men shoshilyapman, ishim boshimdan oshib yotibdi-ya.” (R. Fayziy, Cho’lga bahor keldi), (Rahmatullayev Sh, O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati)

That's it, Mullah Abdugafur, I'm in a hurry, I'm up to my ears.

Quyidagi ingliz va o’zbek tillaridagi to’la ekvivalentlikka ega bo’lgan frazemalarni tahlil qilamiz. Masalan, “Baliq boshidan sasiydi” maqoli biror tashkilotdagi muammo yoki muvaffaqiyatsizlik uning rahbariga borib taqalishi mumkinligini ifodalaydi. Inglizlarda ham shu kabi holatni ifodalash uchun “a fish stinks from the head”dan foydalaniladi. “Bir oyog’i yerda, bir oyog’i go’rda” iborasi deyarli oz umri qolganligini bildiradi. Bu ibora ingliz tilidagi “have one foot in the grave” iborasiga to’g’ri keladi.

Mening bir oyog’im yerda bo’lsa, bir oyog’i go’rda. To’satdan o’lib qolsam ... (O’. Azimov, Aql chirog’i) (Rahmatullayev Sh, O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati)

I have one foot in the grave. If I suddenly die... (X.T.L.)

O’zbek tilida sevib qolganda “yuragidan urdi” iborasi keng qo’llaniladi. Ingliz tilida ham quyidagi ibora sevgi ma’nosini beradi: lose one’s heart to smb.

U qiz yurakdan uribdimi deyman. (X.T.L.)

It seems you lost your heart to that girl.

“Yuragiga quloq solmoq” iborasi o’z his-tuyg’ularingizga ishonishni anglatadi. Ingliz tilida bu iborani burun komponenti bilan ifodalash mumkin, ya’ni “follow your nose”.

Boshqa odamlarning ishiga aralashish “burnini suqmoq” iborasi bilan ifodalanadi. Ingliz tilida bu ma’noni “poke one’s nose into” iborasi bilan ifodalash mumkin.

Oyqiz bo’lsa haddan oshib ketdi, hamma ishga burnini suqyapti. (Sh. Rashidov, Bo’rondan kuchli) (Rahmatullayev Sh, O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati)

Oyqiz has gone so far, she is poking her nose into everywhere.

“ko’z qorachig’i” va “ko’zining oq-u qorasi” iboralari yakka-yu yagona va qadr qiymati beqiyos degan ma’nolarni anglatadi. Ingliz tiliga bu iborani “to be apple of one’s eye” iborasi yordamida tarjima qilish mumkin.

Jamila xolani tashvish bosdi. Bitta-yu bitta ko’z qorachig’i. Biror joyda og’riyaptimikan? (S. Anorboyev, “Pushaymon”, O’zbek tilining izohli frazeologik lug’atidan)

Aunt Jamila was worried. He is apple of her eye. Is he suffering from an illness?

“Ko’z-quloq bo’lmoq” kimnidir ma’lum bir muddat davomida kuzatib turmoq degan ma’noni anglatadi. Ingliz tiliga tarjimada bu ma’noni ifodalash uchun “keep an (one’s) eye on someone/something” iborasini ishlatish mumkin.

“Bir kalla yaxshi ikkitasi undan ham yaxshi” maqoli “four eyes see more than two” analogi yoki “Two heads are better than one” ekvivalent maqollari bilan tarjima qilinishi mumkin. Ushbu somatik frazeologik birliklar bir xil ma’noni anglatib, ikki odam birgalikda maslahatlashib qabul qilgan qarori bir inson tomonidan qabul qilingan qarordan afzalroq ekanligini anglatadi, biroq “four eyes see more than two” iborasiga nazar tashlaydigan bo’lsak qiyoslanilayotgan tillarda turli somatizmlardan foydalanilishini guvohi bo’lishimiz mumkin. Ingliz tilida bu ma’noni berish uchun ko’z komponenti ishtirok etgan somatik frazeologik birlikdan foydalanilgan bo’lsa, o’zbek tilida bosh so’zining sinonimi sanaladigan kalla leksemasidan foydalaniladi.

“Ko’zlariga/quloqlariga ishonmaslik” iborasi ko’rgan yoki eshitgan narsasidan hayratga tushib, uni tasavvur qilolmaganda ishlatiladi. Ingliz tilida bu iboraning to’liq ekvivalenti bor va bu “not believe your eyes/ears” bilan ifodalanadi.

U ajrashayotganlarini aytganida quloqlarimga ishona olmadim.

“I couldn't believe my ears when she said they were getting divorced.”
(Cambridge Dictionary)

O’zbek somatik frazeologik birliklariga ingliz tiliga frazeologik birlik komponentlarning lug’aviy ma’nolarining ko’chishi, o’z ma’nolarida milliy xususiyatlarni gavdalandirishi kabi omillar tufayli adekvat tarjima, ekvivalent tarjima, tasvirlash uslubi, kalka metodi orqali tarjima qilinadi. Frazeologik birliklar xalq donishmandligining mahsuli bo’lib, ular mamlakatning madaniyati va qarashlaridan dan kelib chiqadi va shu sababli oddiy so’zlardan farq qiladi. Ular o’ziga xos xalq xarakteriga ega bo’lib, ular xalqning o’ziga xos xususiyatlarini aks ettiribgina qolmaydi balki ular dunyoning boshqa ko’plab tillari frazeologiyasiga kuchli ta’sir ko’rsatish xususiyatiga ham ega. Demak, ularni tarjima qiladigan kishi har ikki xalqning an’analari, til boyligi va tarixidan xabardor bo’lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Gadoeva M, Background analysis of somatic phraseological units in uzbek. Proceeding of International Conference on Research Innovation In Multidisciplinary Sciences, 2021 Hosted From New York USA www.econferenceglobe.com, pp297-300
2. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка Дисс., , канд фил наук –Т ., 1976.
3. Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологизмларнинг изоҳли луғати.
4. <https://dictionary.cambridge.org/>